

DIZARTRIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOLALARNI NUTQIDAGI KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA NOAN'ANAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Azizova Gulbahor Sherali qizi

*Norin tumani 22DMTT tashkiloti, Defektolog logoped, Toshkent Xalqaro Kimyo
Universiteti 1 - bosqich magstri*

Annotatsiya: *dizartriya — bu nutqni shakllantirish va ijro etish jarayonida muammolarni keltirib chiqaradigan holat bo'lib, u asosan motor funksiyalarining buzilishi bilan bog'liq. Dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nutqning aniq va tushunarli bo'lmasligi, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishda qiyinchiliklar va ovoznining tonalligi, kuchi va ritmida muammolar mavjud. Ushbu muammo bolalarning ijtimoiy, akademik va psixologik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *texnologiyalar, innovatsion usullar, multimedia, interaktiv o'yinlar, virtual haqiqat, nutq rivojlantirish, ijtimoiy rivojlanish, psixologik rivojlanish, motivatsiya, kommunikativ ko'nikmalar, terapevtik yondashuvlar, dizartriya, nutq nuqsoni.*

So'nggi yillardagi eng dolzarb muammolardan biri bu turli xil nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar sonining ko'payishidir. Ular orasida juda keng tarqalgan buzilish dizartriya - nutqning fonetik tomonining buzilishi, bu markaziy asab tizimining organik shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ushbu buzilish sodir bo'lganda, nutqning motor mexanizmi buziladi. 20-asr adabiyotlarida "Dizartriya" tushunchasi "og'izdagi bo'tqa" kabi noaniq tarzda tashkil etilgan nutqning buzilishi deb tarjima qilingan. Dizartriya – logopedik amaliyotda uchraydigan eng ko'p tarqalgan nutq buzilishlaridan biridir. Dizartriyali bolalar bilan korreksion ish mazmuni va diagnostika muammolari nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham yetarlicha ishlab chiqilmaganligi adabiyotlar taxlilida o'z isbotini topdi. Dizartriyadagi murakkab nutqiy buzilish tizimi korreksion tadbirlarni o'tkazish va tashkil etishda kompleks yondashuvni talab etishi mualliflar ishlarida bayon etilgan Dizartriya ko'p hollarda ya'ni 80-90% hollarda BSF (bolalar serebral falaji) bilan birga keladi. Dizartriyada shikastlanganlar qanchalik miya o'qiga yaqin joylashganiga qarab falajlik shunchalik keng tarqalganligini ko'rish mumkin. Uzunchoq miya moddasi shikastlanganda (ensefalit, glial shish) jarangsiz bog'liq ovoz va so'zlarni "yutib" talaffuz qilish kuzatiladi. Bu albatta bulbar dizartriyaning og'ir ko'rinishi hisoblanadi. Va psevdobulbar dizartriyaning ayrim belgilari bilan kombinatsiyalashgan ko'rinishi hisoblanadi. Ko'p jihatdan bu nuqsonni bartaraf etish falajlikni tuzatishga qaratilgan massaj va artikulatsion mashqlar hamda nafas mashqlarini yo'lga qo'yish lozim. Umuman olganda bunday bolalarda to'g'ri nafas olishni yo'lga qo'yish orqali nuqsonni ancha yumshatish mumkin. Dizartriyaning har bir turida har xil yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Kanallarni neyrofonetik tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, alohida guruh muskullarining falajlanishi bo'shashgan falaji tovushlarni talaffuz qilishdagi ayrim

buzilishlarga namoyon bo'ladi Dizartriya muammosining chuqurligi va murakkabligi, birinchi navbatda, nutqning rivojlanish darajasi va asosiy kognitiv funksiyalarning rivojlanish darajasi, shuningdek, intellektual rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liqlik mavjudligidadir. Boshqacha aytganda, nutqida nuqsoni bo'lgan bola savodxonlik va yozishni o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, diqqat va tafakkur, tasavvur va idrok, xotira rivojlanishi bilan bog'liq muammolarga duch kelishi mumkin. Shu munosabat bilan nutq nuqsoni natijasida kelib chiqadigan birlamchi va ikkilamchi muommolarni qo'shimcha o'rganish, shuningdek, ularni bartaraf etish va korreksion usullarini ishlab chiqish zarurati tug'iladi. So'nggi yillarda dizartriyaning keng tarqalganligi sababli ushbu nutq nuqsoni boyicha nazariy va amaliy tadqiqotlar ko'plab olib borilmoqda va uning korreksiyasi boyicha logopedik ish tizimi koplav olimlar tomonidan ishlab chiqilmoqda. M.B.Yedinova , K.A. Semenova, E.M. Mastyukova , E.F. Arhipova, G.V. Chirkina va boshqalar ushbu nutq nuqsonini bartaraf etish yo'llarini korsatib o'tishgan. Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishlarning vazifasi bo'ladi. 1.Tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish; 2.Nutq kommunikatsiyasi rivojlantirish; 3.Motivatsiyani rivojlantirish, o'z-o'ziga ishonchni shakllantirish; 4.Differensial eshitish idrokini shakllantirish; 5.Ko'ruv-knestik tuyg'usini shakllantirish; 6. Korreksion ishni bosqichma-bosqich tashkil etish; 7. Murakkab buzilishlarda tovushlarni tushunarli holatga keltirish. nuqsoniga ega bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonini rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.Bular yana ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.Bunday bolalar nutqidagi kamchiliklar,artikulyatsion apparat kamchiliklari asosida tovush talaffuz funksiyasi to'liq bajarilmasligi natijasida fonematik qabul qilishga birinchi o'rinda ta'sir qilib ,uning shakllanishiga yo'l qo'ymaydi. Qanchalik tovushlarni talaffuz qilishda tayanch kam bo'lsa ,shunchalik fonetik namunalarni shakllanishiga sharoit bo'ladi.Fonematik eshitishning shakllanishi to'g'ri bolaning nutq tomonlarini hammasiga ta'sir qiladi, bolaning umumiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. NTR li bolalarda diqqat-e'tibor xatolari butun ish davomida qatnashadi va doimo mustaqil e'tibor qilinmaydi va yo'qotilmaydi.Xatolar fe'li va ularning o'z vaqtida bo'linishi me'yordan sifatli farqlanadi.Nutqi rivojlanmagan bolalarning erkin diqqat-e'tiborning xususiyatlari chalg'itish xarakterida namoyon bo'ladi.Nutqi sog' bolalar uchun "tajriba o'tkazuvchiga "faoliyati jarayonida chalg'itish intilish xarakterli (bolalar tajriba o'tkazuvchiga qarab ,u yoki bu vazifani to'g'ri yoki noto'g'ri bajarishganini uning ta'siridan aniqlashga xarakat qilishadi),nutqida ko'rinishlari bo'ladi:"derazaga qaradi(atrofga)" , "vaziga bilan bog'liq bo'lmagan xarakatlarni amalga oshiradi".Nutqi og'ir buzilgan bolalarda erkin diqqat -e'tiborining past darajadaliigi ularning shakllanganligiga yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi.

«Razvedkachilar»

Maqsad: Bolalarni zarur tovushini sozlarda tog'ri talaffuz etishga orgatish. Oyinning borishi: Tarbiyachi bolalarga rasmlarni korsatadi, bolalar rasmlarning nomlarini aytadilar. Songra tarbiyachi razvedkachilarni tanlaydi. Razvedkachilar xonadan chiqib turadilar.

Tarbiyachi qolgan bolalar bilan rasmlarni xonaning turli burchaklariga yashirib chiqadi. Razvedkachilar kelib, rasm yashirilgan joyni qidiradilar va topib olgan rasmlarni bolalarga korsatib, uning nomini aytadilar. Metodik korsatma: Narsalarning nomini aytayotganda zarur tovushini aniq talaffuz etishlari kerak. Zarur tovushini chozib talaffuz etmaslik lozim. Hozirgi davrda ota-onalar bilan pedagoglar hamkorligiga alohida e'tibor berilmoqda va bu ta'lim tarbiya ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Ota – onalar bilan ishlashda oqituvchi – logopedlar an'anaviy va noan'anaviy usullar : anketalashtirish, maslahat – muloqat, ochiq mashg'ulotlardan keng foydalanadi. Oz navbatida ota – onalar farzandlari ishlari bilan tanishib, ulardagi muammo va yutuqlardan tegishli xulosa chiqaradilar. Oqituvchi – logoped har bir bola topshiriqlarni qanday bajarganligini ota – onalarga tushuntiradi. Individual daftarlar orqali bolalar qanday natijalarga erishgani, qaysi tovushni hosil qilolmagani, nimada qiynalishi haqida ma'lumot berib boriladi. Shu bilan bir qatorda, ota – onalar bolalari bilan topshiriqni qayta ko`rib chiqishlari lozim.

Dizartriya bolalarning nutqida ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi, jumladan:

- Nutqning aniq bo'lmasligi
- So'zlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik
- Nutqning tezligi va ritmida muammolar

Bu kamchiliklar bolalar o'rtasida ijtimoiy izolyatsiya, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Noan'anaviy texnologiyalar, jumladan, multimedia vositalari, mobil ilovalar, virtual haqiqat (VR) va interaktiv o'yinlar dizartriya bilan og'rigan bolalarning nutqini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin. Ularning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Multimedia vositalari: video va audio materiallar bolalarga nutqni eshitish va takrorlash imkoniyatini beradi. Bu usul orqali bolalar talaffuz va intonatsiyani yaxshilashlari mumkin.

2. Mobil ilovalar: nutq rivojlantirishga qaratilgan ilovalar bolalarga o'yin shaklida mashqlar bajarishga imkon beradi. Bunday ilovalar ko'pincha rangli grafikalar va qiziqarli vazifalar bilan to'ldirilgan bo'lib, bolalarning diqqatini jalb qiladi.

3. Virtual haqiqat (VR): VR texnologiyalari bolalarga turli vaziyatlarda nutqni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Masalan, virtual muhitda boshqa bolalar bilan muloqot qilish orqali o'z nutq ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin.

4. Interaktiv o'yinlar: o'yinlar orqali bolalar o'zlarini erkin his qilishadi va nutqni rivojlantirish jarayonida ko'ngilochar faoliyat bilan shug'ullanishadi. Bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning rivojlanishi uchun noan'anaviy texnologiyalar samarali vosita bo'lishi mumkin. Ular nafaqat nutq kamchiliklarini bartaraf etishda yordam beradi, balki bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, bu texnologiyalar bolalarning o'z-o'zini anglashlariga va o'ziga bo'lgan ishonchlarini oshirishga yordam beradi. Nutq terapevtlari va ota-onalar noan'anaviy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlab, bolalarning nutq rivojlanishiga katta hissa qo'shishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Akimenko V.M. “Yangi logopedik texnologiyalari.” – Rostov n/d.: Feniks, 2008. – 234 p.
2. Arkhipova E.F. Dizartriya uchun logopedik massaj. – M.: AST :A Strel , 2008. – 123 b.
3. Arkhipova E.F. Dizartriya bolalarda logopedik ishning o'ziga xos xususiyatlari. // korreksion pedagogika. - № 1. – 2004. - 36-42 b.
4. Arkhipova E.F. Bolalarda miyachali dizartriya . - M .: AST: Astrel , 2007. - 331 p.
5. DIZARTRIYA NUTQ NUQSONI EGA BO‘LGAN BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI .Pardayeva Muxlisa
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/dizartriya-nutq-nuqsoniga-ega-bo-lgan-bolalarda-ovoz-va-nutqiy-nafasni-rivojlantirish/viewer>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/dizartriya-nutq-nuqsoniga-ega-bo-lgan-bolalarda-ovoz-va-nutqiy-nafasni-rivojlantirish/viewer>